Sog'lom bola muqaddas islom dinimizning muddasiga bo'lgan. Hadis ilmi sultoni Imom al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" kitobining "Bola sog'lom tug'lsa, Xudoga shukr qilish haqida" bobida shunday deyiladi: "Oysha (r.a) biror oilada farzand tug'lsa, o'g'li yo'qizligini so'ramas edilar. Balki "Sog'lommi" deb so'rar, "Ha" deyilsa, "Omlarning Parvardigori Allohga shukur", derdilar.

UNICEF ma

O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI

MDH integratsiyasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi

Bu hali hammasi emas. O'zbekiston MDHga a'zo mamlakatlar bilan savdo, investitsiya, innovatsiya va moliya sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor. Mamlakatimiz venchur loyihalar va iqtisodiy zonalarni birgalikda rivojlantirishga tayyor. Bugungi kunda MDH mamlakatlari bilan qo'shma investitsiya loyihalariga doir portfelimiz hajmi 25 milliard dollardan oshdi.

Yaqinda qabul qilingan Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, Hamdo'stlikka a'zo davlatlarning Sanoat siyosati bo'yicha kengashi doirasida o'zaro investitsiyalarni rag'batlantirish va loyihalarni ilgari surish hamda texnoparklarni tashkil etish bo'yicha Qo'shimcha kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, Prezidentimiz MDH sammitida masalalarini ana shu tomonlariga o'xtaldi.

Bunda xaridlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sug'urta hisobidan qoplab berish va off-take xarid masalalarini puxta o'ylab ko'rish muhim. Kelgusi yilning aprel oyida Toshkent shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan "INNOPROM" sanoat haftaligi doirasida MDH mamlakatlarning sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlanmalari forumini tashkil etish borasidagi Prezidentimiz ilgari surgan

tashabbus barcha davlatlar uchun birdek manfaatli, desak, yangilashmaymiz.

Transport va kommunikatsiyalar sohasi, MDH makonida samarali integratsiyalashgan transport tizimini rivojlantirish, mintaqamizning ulkan tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish ham strategik muhim yo'nalishdir. Ma'muriy tartibot va reglamentlarni takomillashtirish, yuk tashuvlari va tranzit uchun o'zaro preferensiyalar taqdim etish bu boradagi ishlarning muhim jihatlari.

Bundan tashqari, O'zbekiston transportning barcha turida multimodal tashuvlarni tashkil etish orqali transport koridorlarini rivojlantirish, asosiy mintaqaviy koridorlar orqali yuklarni tashishda biznes uchun jolibador shartlarni shakllantirish, yo'lovchi va yuk tashishda boshqarish jarayonlarini va ko'rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirish, transport infratuzilmasi va harakat tarkibini modernizatsiya qilish dasturlari hamda loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishni ham muhim deb hisoblaydi. Zero, bugun rivojlangan davlatlar va integratsion tashkilotlar o'zaro munosabatlarida ana shu mexanizmlardan foydalanib, katta yutuqlarga erishmoqda.

Transport tizimiga bo'lgan jiddiy tahdidlarni inobatga olgan holda, mamlakatlarimiz hamkorlikda yangi

logistika yo'laklarini rivojlantirish g'oyat muhim. Bu o'rinda gap Termiz — Mozori-Sharif — Kobul — Peshovar hamda Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston yo'llarini qurish bo'yicha loyihalar haqida bormoqda. Ushbu yo'llar MDH transkontinental transport tashuvlarining muhim zanjiriga aylanishiga ko'maklashadi hamda yuklarni olib o'tishning muddati va narxini bir necha barobar qisqartirib, amaldagi yo'nalishlarni izchil to'ldirib boradi. Transmilliy yo'laklarning ko'p variantli bo'lishi Hamdo'stlik davlatlari mahsulotlari uchun keng ko'lami yangi bozorlarni ochadi.

Amaliy ilmiy-texnik hamkorlik va ta'lim sohasidagi o'zaro almashinuvni kengaytirish ham hamkorlikdagi harakatlarning ustuvor yo'nalishidir. Turizm sohasida ham katta istiqbol mavjud. Barcha bunyodkorlik rejalarini faqat tinchlik va barqarorlik sharoitida, xavfsizlikka tahdid soluvchi zamonaviy xavf-xatarlarga o'z vaqtida javob qaytarish orqali ro'yogga chiqarish mumkinligi ayon haqiqat.

Shu bois jinoyatchilik, terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va odam savdosiga qarshi kurash sohasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda maxsus xizmatlar hamkorligi muhim amaliy ahamiyatga ega. O'zbekiston Rossiya, Markaziy

Osiyo mamlakatlari va MDHning boshqa davlatlari bilan hamkorlikda Afg'oniston muammosini siyosiy yo'l bilan hal qilish bo'yicha ko'maklashishga tayyorligini bildirgan va shunday bo'lib qoladi.

Yana bir muhim jihat, dunyo miqyosida iqlim salbiy tomonga butkul o'zgarib ketgani hamimizga yaxshi ma'lum. Bu borada hamkorlik har doimgidan ham dolzarb. Shu bois davlatimiz rahbari MDHning Davlatlararo ekologik kengashiga O'zbekistonning qo'shilishini e'lon qildi. Ayni o'rinda kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilgan Xalqaro iqlim forumi doirasida Hamdo'stlik davlatlari hududidagi ekologik tahdid va xavf-xatarlarga bag'ishlangan maxsus yalpi sessiyaga o'tkazish taklif qilindi.

Tan olish kerak, O'zbekiston ilgari surayotgan tashabbuslar mintaqa miqyosida ham, xalqaro miqyosida ham e'tirof etilgan va yuksak qadrlanadi. Xususan, davlatimiz rahbarining o'tgan yili MDH sammitida qadimiy Samarqand shahriga 2024-yilda "Hamdo'stlikning madaniyat poytaxti" maqomini berish borasida ilgari surgan taklifi Bishkek sammitida bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Bu nimani anglatadi? Avvalo, kelgusi yil bahorda Samarqandda MDH davlatlarining madaniyat, san'at va kino haftaligi kabi keng ko'lami tadbirlarni



o'tkazish orqali ushbu makondagi xalqlarimizning yaqinlashuvi, demakdir.

Davlatimiz rahbari qanday darajadagi sammit bo'lmasin, yoshlar masalasini ko'targan. Bu gal ham yoshlar siyosati sohasidagi hamkorlikni faollashtirish masalasiga e'tibor qaratildi. Hamdo'stlikning yangi qo'shma loyihasi doirasida kelgusi yilda "Hamdo'stlikning yoshlar poytaxti" deb e'lon qilingan Toshkent shahrida tadbirlarga boy yirik dastur tayyorlanayotgani ta'kidlandi. Shuningdek, "Hamdo'stlik kubogi" futbol turnirini qayta tiklash va yoshlar jamoalari o'rtasida navbatdagi uchrashuvlarni O'zbekistonda o'tkazish takliflari ham sammit ishtirokchilarining yuksak e'tirofiga

sazovor bo'ldi.

Umuman olganda, Prezidentimiz tashabbuslari Hamdo'stlik mamlakatlari uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Davlatimiz rahbarining MDH oliy mukofoti bilan taqdirlanishi ham fikrimizning yaqqol dalili. O'zbekiston mavjud muammolarni birgalikda hal qilish g'oyasi asosida tashkil etilgan kun tartibini ilgari surmoqda. Shu tufayli bugungi kunda Yevrosiyo mintaqasida o'zaro va ochiq muloqotni mustahkamlash zarurligi haqida umumiy tushuncha shakllandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston o'z tashqi siyosatining fundamental tamoyillariga sodiq qolmoqda. Rasmiy Toshkent milliy manfaatlar va mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida barcha davlatlar bilan teng aloqalar o'rnatgan. O'zbekiston rahbarining MDHga oid siyosati hamda tashabbuslari ushbu muddatli strategik natijalarga erishishga qaratilgan. Bu esa mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini mustahkamlaydi hamda xorijiy biznes vakillarining O'zbekistonga sarmoya kiritish va istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Bobir TURSUNOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Munavvar qori Abdurashidxonov tavalludining 145-yilligi

VATAN VA MILLAT FIDOYISI



O'zbek jadidchilik harakati tarixida Munavvar qori Abdurashidxonov alohida o'rin tutadi. Xususan, uning yangi maktablar ochish, o'quvchilarni yangicha usulda o'qitib, ongu shuurini yuksaltirish yo'lidagi xizmatlari beqiyos.

Alloma ayrim hikoya va she'rilarida, maktab o'quvchilari uchun yozgan o'quv qo'llanmalarida asosiy e'tiborini tarbiyaga qaratgan: "Bolalar uchun tanning salomatligi lozimdur. Ammo aql va fikrning salomatligi undan ortiqroq lozimdur". Inson aqli bilan dunyodagi boshqa yaratilardan farq qiladi. Sog'lom va mustaqil fikri bilan o'zligini ko'rsatadi.

qatt etishdi (1931-yil).

Jiddiy o'rganilsa, millatni chin yurakdan yaxshi ko'rgan ziyolilar, madaniyat, adabiyot va san'at ahlini tuhmatu bo'htonlar bilan qatag'on qilgan 30-yillar muhiti yaqin kechmishimizning, umuman, madaniyatimiz tarixining "eng kir va eng qora" kunlaridir. Tabiiyki, bunday sharoitda ruh erki, so'z erkinligi xususida gap ham bo'lishi mumkin emas. O'sha davr gazeta va jurnallaridagi hukmron adabiy mafkuraga moslashgan maqolalardan haqiqatni bilib olish mushkul va imkonsiz.

O'ta erksiz, o'ta siyosatlashgan matbuotdan farqli o'laroq mamlakatdagi asl holatdan xalqni voqif qiluvchi birorta gazeta yoki jurnal bo'lganmi? Savolga tasdiq javobini berish o'rinlidir. Muhojir turkistonliklar tomonidan Parijda o'n yil davomida (1929 — 1939) Mustafao Cho'qay muharrirligida nashr etilgan "Yosh Turkiston" majmuasi ana shunday o'z milliy yo'lga ega nisbatan erkin matbuot edi.

Bu jurnalning mazmun-mohiyati 30-yillardagi o'zbek sho'ro matbuotidan tubdan farqlanar, sobiq ittifoq tarkibiga kirgan turkiy respublikalardagi voqea-hodisalarga imkon doirasida munosabat bildirar edi. Jurnal mundariyasi rang-barang; chorizm zulmidan qutulib qizil bolshevoylar tuzog'iga tutilgan Turkiston o'lkasining ayanchli ijtimoiy-siyosiy ahvolidan, ayniqsa, 30-yillar boshlaridayoq mahv etila boshlagan tanliq ziyoli shaxslar hayoti, hibsga olinishi, suddagi

tergovlari yoki o'limidan bahs etar edi. Sho'ro matbuoti sahifalarida bir toifa qizil muxbirlar "millatchi"larni, "vatanparasi"lar va "jadid"larni ayovsiz fosh etib, qarsak chalib quvongani holda "Yosh Turkiston" o'sha insonlar taqdiri haqida qayg'urib, ularning fikrini, xizmatini e'zozladi va ba'zan o'zining o'nlab sahifalarini ularga bag'ishladi.

Majmuaning 1934-yilgi yanvar soni ana shunday bag'ishlovlardan biridir. Mashhur o'zbek jadid ziyolisi Munavvar qorining mahv etilishi munosabati bilan jurnalda tahririyatning "Munavvar qori" (rasmii bilan), Afandizodaning "Yangi qurbonlarimiz va Munavvar qori", Yoqub ismi muallifning "Ilk ustozim", Sobirning "Buyuk shahidlarimiz", Tohir Chig'atoyning "Yo'lboshchimiz Munavvar qori", Abdulvahob O'qtoyning "Ustozimiz Munavvar qori" kabi xotiralari, shuningdek, jurnalning 55-sonida Abunasr Najiyning "Habibim Munavvar qori" sarlavhali maqolalari hamda "Olmos Yildirim. Mahshad. Nison 1934" imzosi bilan "Buyuk shahidimiz..." (Munavvar qori uchun) nomli she'ri beriladi.

Ularda o'zbek ziyolining hech aybsiz "qizil jallodlar" tomonidan qatt etilgan ochiq yozildi. Mualliflar o'zlarining maslakdoshi, yo'lboshchisi, ustozlari Munavvar qori naqadar millatsevar va vatanparvar inson bo'lganini, ayni shu jihati bilan bolsheviklarga ma'qul kelmaganini qayta-qayta ta'kidladi. Yangicha usuldagi jadid maktablari o'qitish va darsliklar yozishdagi, gazetachilik va xayriya jamiyatlari

tuzishdagi xizmatlarini faxr bilan tilga oldi. Va uning taqdiriga "Yosh Turkiston"chilar: "Munavvarning bolsheviklar tomonidan o'ldirilishini biz Moskov hokimlarining bizning ilm yurimizni o'ldirmak qasdini tamsil etaturog'on bir harakat deb qabul etamiz", tarzida baho berdi.

Tohir Chig'atoy o'zining xotira-maqolasida shunday yozadi: "Turkiston xalqining so'nggi 30 — 35 yillik tarixini obyektiv bir ko'rish ila tekshiruvchi kishilar uning har sahifasida yo'liqmasdan o'ta olmadilari bir shaxsiyat bordir. O'ziga odatan bu davrning jonli haykali, jonli tarixi demak mumkin bo'lg'on bu kishi Munavvar qoridir.

Turkiston xalqi ichidagi yangi uyg'onish harakatining har tarmog'ini tekshira boshlasangiz, unga Munavvar qori ismisiz kirib bo'lmaydir. Xalqimizning kirib qoldig'i falokatini, bu falokat yo'lining mazlum hadafini to'g'ri ko'rib, unga ko'ra choralar qidira boshlag'on kishi Munavvar qori edi. Ichinda bo'ldig'imiz asrning boshlarida yurtimizga kira boshlag'on "usuli jadid" maktablarining haqiqiy shaklini Munavvar qori maydong'a qo'ydi".

Darvoqe, o'sha paytda Munavvar qori bilan baravar Salim Tillaxon va To'lagan Oxund domla ham yo'q qilinadi. Rasmiy hukumat og'izda qanchalar odil, haqiqatparvar bo'lmasin, bu jallodlarning amaldagi qilmishlari ko'pchilikka ma'lum edi. "Yosh Turkiston"chilar "Munavvar, Salimxon, To'lagan domla — Turkistondagi rus proletaryoti diktaturasining so'nginchi qurbonlari emasdir. Yillardan beri sovbet turmalarida, surgunlarda azob chekayotgan ko'b-ko'b ma'rif odamlarimiz haqida hech bir ma'lumotimiz yo'qdir. Ulardan qanchasi yo'qoldi? Tirik qolq'onlari bormi, yo'qmi? Bu to'g'rida hech bir narsa bilmaymiz... Balki, qadar (taqdir) bizga yangi qayg'uli xabarlar hozirlamoqdadir..." ("Yangi qurbonlarimiz va Munavvar

qori" maqolasidan), degan o'rini taxminlarga berildi va oqibat haq bo'lib chiqdi.

Jadid bobomizning Toshkentda ochilgan "Namuna" maktabida olti yil tahsil olgan Abdulvahob "Ustozimiz Munavvar qori" maqolasida allomaning xizmatlarini turk, ozarbayjon va qrim jadidlari faoliyatiga taqqoslaydi, o'ziga xos jihatiha urg'u beradi. Xotiraning o'ziga ushbu tarixiy shaxsning xizmatlarini to'la yoritma olmasligi ham aniq. "Munavvar qorining Vatanimiz Turkistonda etgan milliy xizmatlarini to'liq yozmoq uchun butun bir tarix kitobi yozish kerak bo'ladi", deya ta'kidlaydi u.

Darhaqiqat, Munavvar qorini esga olganlar allomaning barcha ulug' xizmatini bir-ikki maqola bilan tavsiflab berish imkonsizligini yaxshi bilgan. Abdulvahob ham maqolasida: "Busayg'ili nurli siymoni tekshirmak milliy tarixchilarimizning bo'yinlariga tushaturog'on vazifadir", deb yozadi...

Oradan salkam bir asr o'tdi. Vazifa o'z dolzarbligini yo'qotgan yo'q. Ayni damda bu mas'uliyatli vazifani bugungi adabiyotshunos va tarixchi olimlar his qilib, ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotganini e'tirof etish ham adolatdan bo'lar edi. Shunga ko'ra Munavvar qorining "Ma'naviyat" nashriyatida "Xotiralar" kitobi chop qilinganini, sakkiz risoladan iborat "Jadidlar" majmuasining bir Munavvar qoriga bag'ishlanganini alohida ta'kidlash o'rinli.

2020-yilda Prezidentimiz ulug' jadid bobolarimiz — Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Avloniy bilan bir qatorda Munavvar qorini ham "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotladi. Bu tarixiy hodisani yangi O'zbekiston xalqining Munavvar qoriga ehtiromi ramzi sifatida baholash lozim, albatta.

Bahodir KARIMOV,
filologiya fanlari doktori,
professor.

MAHALLADA OBODLIK SHUKUHI

Shu yerda yashovchi oilalar umumiy foydalanishi uchun alohida usti yopiq tandirxonaga, to'y va boshqa marosimlarni o'tkazish maqsadida zamonaviy ko'rinishdagi shinam ayvon qurib berildi. Obodonlashtirish ishlari esa davom etmoqda. Mutasaddilar ko'p qavatli uylar joylashgan bu hududni obod va ko'rkam manzilga aylantirishni maqsad qilishgan.



Zafar mahallasi ahlining asosiy muammolaridan yana biri ichimlik suvi edi. Bir paytlar hududdagi aholi xonadonlariga markazlashgan ichimlik suvi yetkazib berilgan, biroq keyinchalik tizim ishdan chiqib, suv kelmay qo'yg'an.

Dastur doirasida eski suv inshooti ta'mirlanib, 4,8 kilometr suv tarmog'i tortildi. Bu boradagi ishlar yakunlanib, tizim to'liq ishga tushirilganidan so'ng mahalladagi xonadonlarga qaytdan markazlashgan holda toza ichimlik suvi kirib boradi.

Qolaversa, obodonlashtirish, qurilish-bunyodkorlik ishlari davomida mahalladagi ta'mirlab holga kelib qolgan 1 kilometr yo'lga asfalt yo'zildi, 20 ta beton ustun yangilanib, 1 kilometr havo kabellari almashtirildi. Ijtimoiy soha obyektlarida keng ko'lami ta'mirlash ishlari olib borildi.



Bundan tashqari, dastur doirasida mahallada aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmog'ga, — deydi tuman hokimining mahalladagi yordamchisi Obid G'oyimov. — Shunga asosan, o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan 11 kishiga tikuvchilikni yo'lga qo'yishi uchun subsidiyalari olib berildi. 8 nafarining imtiyozli kredit asosida motoroller olishiga ko'maklashildi. 14 kishi haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilgan bo'lsa, 3 nafari kasb-hunar o'rganishga yo'naltirildi.

E'tiborli tomoni, mahalladagi obodlik shukhi odamlarning kayfiyatida, ruhiyatida ham o'z aksini topmoqda. Hududni obodonlashtirish, daraxt ekish, yashil maydonlarni ko'paytirish, tomorqadan samarali foydalanish kabi ishlarda aholining o'zi ham jonbozlik ko'rsatyapti. Imkoni yetganlar esa bu boradagi ishlarni moliyaviy tomondan ham qo'llab-quvvatlash harakatida. Masalan, hududdagi tadbirkorlardan biri o'z hisobidan zamonaviy mahalla binosini qurib berayotgan bo'lsa, boshqalari kam ta'minlangan oilalarning uy-joylarini ta'mirlash, obodonlashtirish ishlariga ko'mak ko'rsatmoqda.

Ma'lumot o'rinda aytish kerakki, viloyatda Zafar mahallasidan tashqari Dehqonobod tumanidagi Tog'aytemir, Nishon tumanidagi Guliston, Mirishkor tumanidagi Obod mahallalarida ham "Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla" mezonni asosida obodonlashtirish, qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmog'ga.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi")

SAHRO BAG'RIDAGI MO'JIZA

Buxoroda yirik shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda.

— Korxonamiz "G'ijduvon" erkin iqtisodiy zonasida joylashgan, — deydi "Siyavush Textile Buxara" mas'uliyati cheklangan jamiyati vakili Ulug'bek Sharipov. — Uning uzluksiz ishlashi barqaror elektr energiyasi ta'minotiga borib taqaladi. Shu jihatdan shamol elektr stansiyalarining barpo etilayotgani biz, tadbirkorlar uchun ayni muddao.

Darhaqiqat, "G'ijduvon" erkin iqtisodiy zonasi hududi yil sayin kengayib, yangidan-yangi korxonalar ish boshlayapti. Masalan, davlatimiz rahbarining 2021-yil 17-noyabrdagi qaroriga ko'ra, iqtisodiy zonaga Peshku va Qorovulbozor tumanlari hududidan 200 gektar yer maydoni ajratildi. Bu yerda amalga oshirilayotgan biznes loyihalar istiqbolli infratuzilmaga, jumladan, tabiiy gaz qatori elektr energiyasi ta'minotiga ham uzviy bog'liqdir.

Birgina G'ijduvon tumanidagi obyektning foydalanishga topshirilishi natijasida esa yiliga 1,8 milliard kVt/soatgacha elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yuzaga keladi. Binobarin, yirik loyiha sharofati bilan minglab xonadonlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy soha obyektlarini qayta tiklanuvchi energiya bilan ta'minlash mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, shamol elektr stansiyasining ishga tushirilishi natijasida yiliga 550 million kub metr tabiiy gaz tejaladi. Atmosferaga 500 ming tonna miqdorida zararli gazlar chiqishi xavfi bartaraf etiladi. Bu dalillar ham muqobil energiyaning viloyat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash borasidagi ahamiyatini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi")



O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi a'zosi, O'zbekiston san'at arbobi, kinorejissor va muharrir

Xayrulla JO'RAYEVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etadi.

O'ZBEKISTON MADANIY MEROSI — YANGI RENESSANS ASOSI

O'zbekiston bir necha ming yillik ulug'vor va muhtasham tarixga ega. Yurtimizda jahonshumul sivilizatsiyalar, yirik imperiyalar, havas qilsa arzigulik shaharlar va bebaho me'moriy obidalar vujudga kelgan. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tengsiz madaniy meros insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan. Ana shunday ulug'vor va boy madaniy merosni asrab-avaylash, o'rganish va uni ommalashtirish bo'yicha keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida ilgari surgan qator tashabbuslar orasida xalqimiz madaniyati va tarixini ommalashtirishga qaratilgan madaniy forum o'tkazish taklifi xalqaro hamjamiyat, xususan, YUNESKO tomonidan

qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Joriy yilning 5 — 8-noyabr kunlari Samarqand shahrida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyatining "O'zbekiston madaniy merosi — yangi Renessans asosi" VII xalqaro kongressi o'tkazildi. Unga 32 xorijiy mamlakatdan qariyb 350 nafar olim, ekspert, muzey va kutubxonalar rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari tashrif buyurdi. Ular O'zbekistonda madaniyati va san'atni, buyuk ajdodlar merosini asrab-avaylash, avlodlarga bezavol yetkazish borasida olib borilayotgan ishlarga yuksak baho berdi.

Tadqiqot rahbarlaridan O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha fikr-mulohazalari, yurtimizda olgan taassurotlari haqida yozib oldik.

am binolarga har qaraganimizda, yozgan bebaho asarlarini mutolaa qilganimizda bunga qayta va yana qayta amin bo'lamiz.

Xususan, Amir Temur va temuriylar madaniyati dunyo tamaddunida munosib o'rin tutadi. Yaqinda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron boshchiligidagi rasmiy delegatsiya tarkibida O'zbekistonning tarixiy obidalari, boy madaniy merosini yana bir bor kashf etgandek bo'ldim.

Kongress davomida O'zbekiston tarixi, madaniy merosiga oid qator muhim topilmalar taqdim qilindi. Ular orasida Hindistonda saqlanayotgan Akbarshoh buyrug'i bilan yozilgan noyob kitob ham bor. Xudobaxsh Xon kutubxonasi Hindistondagi eng boy kutubxonalardan biri bo'lib, u yerda O'zbekiston tarixiga oid hujjatlar, xususan, temuriylar tarixiga oid arab va turk tillaridagi qo'lyozmalar saqlanadi. Bu qo'lyozmalar orasida eng noyobi, qimmatlisi esa "Tarixi xonadoni Temuriya" bo'lib, unda Amir Temur va temuriylarga bag'ishlangan 132 ta miniatyura mavjud. Ayni paytda temuriylar, umuman, O'zbekiston madaniy merosini tadqiq etish bugungi kunda mamlakat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan, desak, mulohaza emas.

Xayriddin IVGIN, folklorshunos olim, professor, doktor (Turkiya):

— O'tmish guvoh: ming yilliklar suroni kimlarni unutmagan, nene xalqlarni yutib yubormagan? Menimcha, birinchi navbatda, tarixga bee'tibor bo'lganlar qismati ana shunday ayanchli kechgan. O'z tarixini yaxshi bilgan, ajdodlarini unutmagan xalq borki, hayot yo'lini to'g'ri belgilab olgan, ravnaq topgan.

O'zbekiston bugun mana shu oydin yo'lda. Yurtingizga ko'p kelaman, har kelganimda yangidan-yangi o'zgarishlarga, bunyodkorliklarga guvoh bo'laman. Har gal turli anjumanlar doirasida ilm-fanga e'tibor ortayotganidan, qardosh o'lkada ilmiy tadqiqotlar ko'lami sifatu son jihatdan oshib borayotganidan xursand bo'laman. Kongressning aynan Samarqandda

o'tkazilganida ham ayrica ramz bor, menimcha. Samarqand qadimda ko'plab olimlarni o'zida jamlagan, aynan shu yerdan dunyo tamadduniga sezilarli darajada hissa qo'shgan, butun dunyo tan olgan olimu fuzalolar yetishib chiqqan. Shuningdek, bu o'lka xalqlarimizning yaqinlashuviga, har tomonlama hamkorligida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Hozir ham bu yerda, ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qator rostlagan "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turizm markazida amalga oshirilgan bunyodkorliklar har jihatdan diqqatga sazovor. Bu yurtda qilinayotgan islohotlardan, go'zal amallardan ibrat olsa arziydi.

Sulton RAYEV, TURKSOY tashkiloti rahbari:

— O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o'zbekim" deb boshlangan qasidasini juda ko'p o'qiyman. Darhaqiqat, o'zbek xalqining tarixi va madaniyati ming-ming yillar qo'rida yashirinib yotibdi. Buni anjumangacha tashrif buyurgan olimlar ham bir ovzodan e'tirof etishdi.

Ayni paytda O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida qilinayotgan ishlar buyuk ajdodlarga munosib vorislik belgisi, desak, yangilishmaymiz.

Anjuman nihoyasida Butunjahon jamiyati a'zolarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga murojaatnomasi qabul qilindi. Murojaatnomada davlat rahbariga ilm-fan, madaniyat va ma'rifat sohalari rivojlantirishga qaratayotgan yuksak e'tibori hamda g'amxo'rligi uchun samimiy minnatdorlik bildirildi. O'zbekiston madaniy merosini yanada chuqurroq o'rganish borasidagi xalqaro hamkorliklar bundan keyin ham izchil davom ettirilishi alohida urg'ulangan.

O'ylaymanki, kelajakda O'zbekiston tarixi va madaniy-milliy merosini o'rganishga doir yana ko'plab xalqaro loyihalarini amalga oshiramiz hamda ko'zlangan maqsad sari olg'a qadam tashlayveramiz.

Rustam JABBOROV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

Infratuzilma



XONADONLARNI ISITISH IMKONIYATI KENGAYDI

Andijon viloyatining Asaka tumanida yangi markaziy qozonxonona ishga tushirildi. Buning natijasida 27 ta ko'p qavatli uyning 1 034 ta xonadonini issiqlik manbai bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi.



— Hududlardagi infratuzilmaning yaxshilanishi xalqimizning turmush sharoitini tubdan o'zgartirib yuboradi, — deydi mehnat faxriysi Abdurahmon Ismoilov. — Oddiy misol, Asaka tumanidagi ko'p qavatli uylarda istiqomat qiluvchi aholi xonadonlari aksariyat hollarda ko'mir yoqilg'isi bilan isitardi. Bu yong'in xavfsizligi qoidalarga mutlaqo zid ekanini hamma biladi, biroq boshqa chora yo'q edi. Yangi qozonxonaning ishga tushirilishi asakalilarga qulaylik baxsh etish bilan bir qatorda, qish mavsumini xavfsiz o'tkazishlariga ham sharoit yaratadi.

Qozonxonaning foydalanishga topshirilishi tufayli manzilda joylashgan 4 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, bitta maktab, bitta tug'uruq kompleksi va 3 ta tashkilot binolari ham issiqlik manbaiga ega bo'ldi.

Saminjon HUSANOV ("Xalq so'zi").

Dil so'zi

Firdavs ABDUXOLIQOV, O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati boshqaruvi raisi:



— Prezidentimiz yangi Renessans poydevorini yaratish g'oyasini ilgari surar ekan, uning hayotiy ro'yobiga katta turki beradigan buyuk ajdodlarimizning bebaho madaniy merosini asrab-avaylash va targ'ib etish bo'yicha barcha sharoitni yaratib berdi.

Ana shu imkoniyatlardan foydalanib, jamiyatimiz faol ish olib bormoqda. Jumladan, mazkur an'anaviy anjumaning mazmuni yildan-yilga boyib, ko'lami kengayib bormoqda. Bu yilgi kongress ham nihoyatda yuqori saviyada, qizg'in va baland ruhda o'tkazildi. Tadbir doirasida "O'zbekiston madaniy merosi" turkumidagi kitob-albomlarning o'nta yangi jildi, "Hazrati Zangi ota", "O'zbekiston qo'lyozma merosi durdonalarida tarixiy shaxslar", "O'zbekiston san'ati durdonalari", "Orol va Amu bo'ylarida: qoraqalpoq san'ati" kitob-albomlari, "Don Rui Gonzales de Klavixo: Samarqanddagi Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403 — 1406)", "Badiiy atamalar ensiklopediyasi" kitoblari taqdimotlari ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Xususan, muallifligimda chop etilgan

"O'zbekiston qo'lyozma merosi durdonalarida tarixiy shaxslar" bezakli kitob-albomi XIII — XVIII asrlarda ishlangan 300 ga yaqin rangli miniatyuralarni o'z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, unda o'nta sulolaga mansub 80 dan ortiq hukmdor, shahzoda va malikalar, 20 dan ziyod shoir, olim, mutafakkir va rassomlar tasvirlangan. Kitob ustida ishlash jarayonida Nuh ibn Mansur, Sulton Alouddin Xorazmshoh, Najmiddin Kubro, Turkon Xotun, Xadichabegim, Imomqulixon, Abdullaxon Ikkinchi, Abdullazizxon singari tarixiy shaxslarning suratlarini turli muzeylardan sotib oldik.

Aminmanki, ushbu nashrning yurtimiz tarixi va buyuk ajdodlarimizni o'rganish hamda tadqiq etishda ahamiyati katta bo'ladi.

Mahmud Erol QILICH, "IRCICA" xalqaro islom tarixi, san'ati va madaniyati tadqiqotlari markazi raisi:



— San'at va madaniyatning hayotimizdagi o'ni bugun qaysidir ma'noda pasayayotgandek tuyuladi. Chunki zamonaviy odamlari jadal-lashayotgan asrda yashab, nimanidir bemalol o'qib yo eshitib lazzat tuyishdan yiroqlashib ketishdi. Tarix ham guvohlik beradi, madaniyatdan, ma'rifatdan, san'atdan uzoqlashgan xalqlar bora-bora tanazzulga yuz tutish-

gan va buning sabablarini boshqa narsalarda deb bilishgan. Unutmamakki, biz agar kelajagimiz bo'lishini istasak, albatta, milliy xazinalarimiz, san'at va madaniyatimizning saqlanishiga, ulardan kelajak avlodni xabardor qilishga intilishimiz kerak.

O'zbekiston — boqiy merosga, boy madaniyat va qadim tarixga ega mamlakat. Davlat rahbari ana shu merosni saqlash va tadqiq etishga juda katta e'tibor qaratmoqda. Bugungi kongress ham ana shu e'tiborning yaqqol namunasidir. Xalqaro kongressda dunyoning turli mamlakatlaridagi muzeylar, kutubxonalar va shaxsiy to'plamlarda saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi durdonalarini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha yangicha qarash va yondashuvlar ham atroflicha tahlil etildi.

Biz o'zbekistonlik olimlar va ilmiy markazlar bilan yaqin hamkorlik qilamiz. Anjuman davomida birgalikda bajariladigan ishlar qamrovini kengaytirishga kelishib oldik.

Fredrik BRESSAND, Fransiyadagi temuriylar merosini o'rganish jamiyati asoschisi va raisi:



— Madaniy-moddiy boyliklar xalqning naqadar buyukligini, qanchalik qudratga egaligini ko'rsatib berishi ayni haqiqat. Ajdodlarimiz qurgan muhtash-

Dolzarb mavzu

Dori vositalarini qalbakilashtirish va kontrabandasi keng ko'lamli muammolardan biri hisoblanadi va bu jiddiy masala bilan har bir davlat o'zgacha uslubda kurashadi.

O'zbekistonda bir necha yildan buyon "Asl Belgisi" raqamli markirovka tizimi faol joriy etilmoqda. Bu qalbaki mahsulotlarning keng ko'lamli muammosiga qarshi kurashda muhim vositadir.

Dori vositalarini majburiy raqamli markirovkalash O'zbekistonda 2022-yil 1-sentabrda boshlangan. U bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Uning asosiy vazifalaridan biri bozorni raqamlashtirish, kontrafakt va kontrabandaga qarshi kurashishdir. Majburiy raqamli markirovka boshlanganidan beri dori vositalari uchun 900 milliondan ortiq kodlar chiqarildi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga ko'ra, dori vositalarining uch guruhli muvaffaqiyatli yo'lga qo'yildi. Birinchisi — ikkilamchi qadoqlash, ikkinchi guruh — birlamchi qadoqlash, shuningdek, orfan dori vositalari.

Markirovka tizimi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi va aylanmasi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi. Bu, bir

tomondan, logistika zanjiri bo'yab tovarlar harakatini kuzatish imkonini beradi, boshqa tomondan, zanjirni qalbaki mahsulotlar bilan "to'ldirish"dan himoya qiladi.

Eslatib o'tamiz, "STADA" MCHJ XK O'zbekiston bozori uchun markirovkali mahsulotlar ishlab chiqaradigan birinchi xalqaro farmatsevtika kompaniyasi bo'ldi. Dastlab, markirovka bo'yicha tajriba loyihasida markirovkalash uchun "Natalisid" mahalliy foydalanish uchun gemostatik vosita tanlangan. Raqamli markirovka loyihasi ustida ish 2022-yil fevral oyida boshlangan. Markirovka tizimining joriy etilishi ichki farmatsevtika bozori uchun kontrafakt va qalbakilashtirilgan mahsulotlarga qarshi kurashish nuqtayi nazaridan shaffof va xavfsiz qiladi.

"STADA" MCHJ XK kompaniyasi O'zbekistonda dori vositalari yetkazib berishni ko'paytirish va mahalliy sog'liqni saqlashni rivojlantirishga qo'shgan hissasini oshirish ustida ishlamoqda.

RAQAMLI MARKIROVKA — QALBAKI MAHSULOTLARGA QARSHI KURASHDA MUHIM VOSITA

O'zbekistondagi MCHJ XK bosh direktori Baxtiyor Hojimuhamedov farmatsevtika bozori, raqamli markirovkani joriy etish bo'yicha ochiq imkoniyatlar va istiqbollarga haqida o'z fikrini bildirdi.



— O'zbekiston farmatsevtika bozori shaffoflik va raqobatbardoshlikni namoyish etmoqda. Biroq bu ko'proq darajada CHC yo'nalishida kuzatiladi. Kasalxonada segmentida o'sish hozircha faqat kutilmoqda. Bu borada sog'liqni saqlash tizimini zarur dori-darmonlar bilan ta'minlashga bel bog'lagan davlatga hurmat-ehitirov ko'rsatishimiz kerak, — deydi Baxtiyor Hojimuhamedov. — Agar vijdotsiz ishlab chiqaruvchilar haqida gapiradigan bo'lsak, javob — ha. Afsuski, ko'plab xalqaro kompaniyalar bu muammoga duch kelishda davom etmoqda. Asosan, insofsizlik intellektual mulk huquqlarining buzilishi bilan bog'liq.

Ya'ni tovar belgisidan noqonuniy foydalanish yoki asl nusxasiga o'xshash dori vositalarini ishlab chiqarish. Umid qilamizki, yaqinda qabul qilingan qator qonun hujjatlari ushbu muhim masalani hal etishda yordam beradi.

Raqamli markirovka bemor uchun shaffoflikni anglatadi. Qadoqdagi kodni skanerlash orqali u asl dorini qo'lida ushlab turganini — uning ishlab chiqaruvchisi, importchisi va distribyutori kimligini aniq tekshirishi mumkin. Natijada bu bozordan kontrafakt mahsulotlarni "yuvish" imkoni tug'iladi.

"STADA" MCHJ XK o'z mahsulotlarining bir qismini allaqachon markirovkalagan va bu yo'nalishdagi ishlar faol davom etmoqda.

Farmatsevtika tashkilotlari xodimlari ham odamlardir va ular ham kasal bo'lib qolishadi, shuning uchun dorixonada javonlarida past sifatlil mahsulotlarga qarshi kurash ham shaxsiy xohish bilan bog'liq. Men yaqinda Toshkentdagi ba'zi dorixonalarda tizimni sinovdan o'tkazdim, kodlarni skanerladim — hammasi to'g'ri ishlaypti.

Bemorlar uchun raqamli markirovka tizimi to'liq shaffoflik va xavfsizlikdir. U sotib olingan dori vositasi qadog'i barcha zarur standartlarga muvofiq ishlab chiqarilganiga, tegishli logistika tashkil etilganiga, tashish va saqlashda sovuq zanjir ta'minlanganiga amin bo'lishi mumkin. Axir ishlab chiqaruvchi pirovardida mahsulot sifati uchun javobgardir. Shuningdek, tizimni joriy etishda davlat uchun qulayliklar mavjud — elektron kuzatuv imkoniyati xorijdan qancha hajmdagi tovarlar kelishini, uning mamlakat ichida harakatlanishini, soliq to'lovlarini nazorat qilishni tushunish imkonini beradi.

"Xalq so'zi".

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxonaga telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.30 Topshirildi — 23.40 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi